

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 apreldagi «Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumd

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 apreldagi «Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida»gi PF-5421-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 apreldagi «Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida»gi PF-5421-sonli farmoni ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi farmonibilan quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallab olingan er uchastkalari yoki imorat qurish uchun ruxsatnoma olmasdan qurilgan turar joylariga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini (keyingi o'rinlarda bir martalik aksiya deb yuritiladi) e'lon qilish to'g'risidagi taklifga rozilik berilganligi;

b) 2019 yil 1 mayga qadar;

ushbu er uchastkasi (uchastkaning bir qismi) unga qonun hujjatlariga muvofiq turar joy qurish uchun ajratilishi mumkin bo'lmagan er maydonida joylashmagan bo'lsa;

o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat shaharsozlik normalari va qoidalarini buzmayotgan bo'lsa, shuningdek, uning saqlab qolinishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasa yoxud fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavf to'g'ri dirmasa e'tirof etiladi. O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilmaydigan aniq holatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan tashkil etiladigan Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha komissiyaning taqdimnomasiga ko'ra tuman (shahar) hokimining qarori bilan;

umumiy mulk huquqi haqidagi fuqarolik va oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalariga amal qilish sharti bilan;

eng kam ish haqining besh baravari miqdorida bir martalik yig'im to'langandan keyin amalga oshirilishi;

belgilab qo'yilganligi

v) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga joylarda Ko'chmas mulkka nisbatan huquqni e'tirof etish ishlarini tashkil etish bo'yicha komissiya faoliyatida qonuniylikning ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish topshirilganligi;

g) Quyidagilar:

o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bir martalik xarakterga ega hamda mazkur Farmonning2-bandida ko'rsatilgan muddatdan kechiktirilmasdan amalga oshirilishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, boshqa vakolatli organlarning mansabdor shaxslari keyinchalik o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga yo'l qo'yganliklari uchun shaxsan javobgar hisoblanishi belgilab qo'yilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi er resurslari, geodeziya, kartografiyava davlat kadastr davlat qo'mitasiga Adliya vazirligi hamda Qurilish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Nukus shahar va tumanlar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi bir martalik aksiyaning amal qilish muddati tugagunga qadar:

sudlarga o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzib tashlash bo'yicha da'vo kiritishni to'xtatib turilishini, qonun hujjatlarigaasosan turar joy qurish uchun ajratilishi mumkin bo'lmagan er maydonida joylashgan er uchastkasida (uchastkaning bir qismida) qurilgan ob'ektlar bundan mustasno;

sudlarning turar joy sifatida foydalanilayotgan o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzib tashlash to'g'risidagi ko'rib chiqilayotgan da'volar hamda ijro qilinmagan qarorlari bo'yicha belgilangan tartibda kelishuv bitimlari tuzilishini ta'minlasinlar.

4. Qoraqalpog`iston teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi er resurslari va davlat kadastri boshqarmasi, Nukus shahar va tumanlar hokimliklari yuqoridagi Farmon hamda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etsin.

5. er resurslari va davlat kadastri boshqarmasi Adliya vazirligi hamda Qurilish vazirligi bilan birgalikda o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o`z zimnamda qoldiraman.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 
- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)